

UO'K (UDC, УДК): 81.367

O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SIFATNING GAPDAGI FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI (T.DRAYZERNING “BAXTIQARO KERRI” ASARI MISOLIDA)¹⁵

Mayliyeva Gulmira Bahramovna,

Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi,

Urganch, O‘zbekiston

mayliyevag@gmail.com

Orcid ID 0000-0001-6079-0954

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida sifat so‘z turkumining matndagi imkoniyatlari, sifatning otlashuv jarayoni, boshqa so‘z turkumlarining sifat vazifasida matnda qo‘llanilishi, sifatning gapda ot, ravish, sifatdosh vazifalarida kelishi borasida so‘z yuritiladi. Bunda o‘zbek va ingliz tillari o‘zaro chog‘ishtiriladi, matndagi imkoniyatlari tahlil qilinib, Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” asarining o‘zbek hamda ingliz tillaridagi kitoblardan misollar keltiriladi. Maqolada qiyosiy-tavsifiy metod, komponent tahlil metodlaridan foydalanildi. Maqolaning ilmiy natijasi shundan iboratki, ushbu ishda ikkita tilda sifat so‘z turkumining funksional-semanik xususiyatlari ochib beriladi va ularga matndan misollar keltirgan holda chog‘ishtirib o‘rganiladi. Maqolaning asosiy xulosasi shundan iboratki, o‘zbek va ingliz tillarida sifat so‘z turkumi matnda deyarli bir xil vazifalarda qo‘llaniladi, shu bilan birgalikda ular matndagi imkoniyatlari o‘zaro farqlanib ham keladi, ya’ni chog‘ishtirilayotgan tillarda sifatning o‘ziga xos o‘xshash va farqli jihatlari borligi aniqlandi.

KALIT SO‘ZLAR

Sifat, funksional-semantik xususiyatlar, sifatning semantik guruhlar, otlashish, sifatlashish, attributiv vazifa, predikativ vazifa, funksional tahlil.

Received: November 27, 2024

Accepted: December 21, 2024

Available online: March 1, 2025

¹⁵ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Mayliyeva G.B. O‘zbek va ingliz tillarida sifatning gapdagi funksional xususiyatlari (T.Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” asari misolida). // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 1. — B. 128-139

ОСОБЕННОСТИ ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ В ПРЕДЛОЖЕНИИ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ (НА ПРИМЕРЕ ПРОИЗВЕДЕНИЯ Т. ДРАЙЗЕРА «СЕСТРА КЕРРИ»)

Майлиева Гульмира Бахрамовна,

независимая исследовательница

Ургенчского государственного университета,

Ургенч, Узбекистан

mayliyevag@gmail.com

Orcid ID 0000-0001-6079-0954

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

В данной статье рассматривается потенциал функционирования имен прилагательных в текстах на узбекском и английском языках, процесс субстантивации прилагательных, использование других частей речи в функции прилагательных, а также выполнение прилагательными в предложении функций существительного, наречия и причастия. При этом с целью сопоставления возможностей, которыми обладают прилагательные в текстах на узбекском и английском языках, в статье приводятся и анализируются примеры из узбекских переводов и самого англоязычного оригинала - произведения Теодора Драйзера «Сестра Керри». В статье были использованы сопоставительно-описательный метод и метод компонентного анализа. Научный результат статьи заключается в том, что в работе описаны функционально-семантические особенности прилагательных в двух языках, которые изучаются в сопоставлении, сопровождаясь примерами из текста. Основной вывод статьи состоит в том, что прилагательные в узбекском и английском языках используются в тексте почти в одинаковых функциях, но, вместе с тем, они обладают разными возможностями, то есть выявлены как сходства, так и различия в функционировании прилагательных в текстах на двух сопоставляемых языках.

Прилагательные, функционально-семантические особенности, семантические группы прилагательных, субстантивация, адъективация, атрибутивная функция, предикативная функция, функциональный анализ.

FEATURES OF ADJECTIVE FUNCTIONING IN SENTENCES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES (BASED ON THEODORE DREISER’S NOVEL “SISTER CARRIE”)

Mayliyeva Gulmira Bahramovna,

an independent researcher at Urgench State University,

Urgench, Uzbekistan

mayliyevag@gmail.com

Orcid ID 0000-0001-6079-0954

ABSTRACT

This article discusses the potential uses of adjectives in Uzbek and English, the process of justifying of adjectives, the application of other parts of speech as adjectives, and the roles of adjectives functioning as nouns, adverbs, and participles in sentences. Uzbek and English are compared, their textual potentials are analyzed, and examples are provided from the Uzbek and English versions of Theodore Dreiser’s novel *Sister Carrie*. The article employs comparative-descriptive and component analysis methods. The scientific result of the article is that the functional-semantic properties of adjectives in two languages are revealed, comparatively analyzed with examples from the text. The main conclusion of the article is that adjectives in Uzbek and English are used in almost identical functions in texts, but they also differ in their text potentials, suggesting that adjectives in the two languages have unique similarities and differences.

KEY WORDS

Adjectives,
functional-semantic
features, semantic
groups of adjectives,
substantivization,
adjectivization,
attributive function,
predicative function,
functional analysis.

KIRISH

O'zbek va ingliz tillarida sifat so'z turkumi o'ziga xos semantik hamda vazifaviy-funksional jihatlariga egaki, bu borasida o'zbek va ingliz tilshunos olimlari salmoqli izlanishlar olib borishgan. Sifatning lingvistik tabiati shundayki, u ot so'z turkumini aniqlashtirib, uning shakli, rangi, hajmi, xarakter-xususiyati, mazasi, hidi kabi ma'nolarini ifodalab keladi. Bu jihatlar sifatning semantik guruhlarini hisoblanib, ular o'zbek tili darsliklarida 9 ta (Sodiqova M., 1974, 49), ingliz tilshunosligida dastlab 11 ta (Dixon R.M.W., 1991), 13 ta (Dixon R.M.W., Alexandra Y. Aikhenvald, 2004, 4) deb qabul qilingan, biroq bu borada ham talaygina farazlar mavjudki, ular bir-biridan bu kungacha farqlanib kelmoqda va tilshunoslikda o'ziga xos masala bo'lib qolmoqda.

ASOSIY QISM

Sifatning matnda aniqlovchi bo'lib kelishi hech kimga sir emas, ya'ni u gapda aniqlovchi vazifasida kelib, ko'pincha otga bog'lanib keladi. Sifatning aniqlovchi vazifasida kelishi ham uchta ko'rinishda namoyon bo'lib, ular gapda sifatlovchi-anqiqlovchi, izohlovchi-anqiqlovchi, qaratqich-anqiqlovchi bo'lib kelishi matnda kuzatiladi (Mengliyev B., Xoliyorov O., Abdurahmonova N., 2015). Sifat har doim anqiqlovchi vazifasida kela olmaydi, masalan, u otga bog'anib kelsa ham boshqa so'z turkumiga doir so'z anqiqlovchi bo'lishi ham mumkin: *beshinchi qavat* misolida *beshinchi* so'zi son so'z turkumi bo'lib, gapda anqiqlovchi bo'lib kelganligini ko'rish mumkin.

Sifatning yana bir muhim funksional-semantik jihati shundan iboratki, sifat matnda otlashgan va otlashmagan ko'rinishlarda qo'llaniladi. Sifat otlashib kelganda sifatlovchi-anqiqlovchi, kesim vazifasida, qaratqich-anqiqlovchi, undalma hamda ravish ko'rinishlarida matnda qo'llaniladi. Otlashgan sifatlar otning grammatik shaklini olib, vazifa jihatdan ot so'z turkumi sifatida qaraladi, biroq lug'aviy ma'nosi sifatni ifodalab keladi. Shuni ta'kidlash kerakki, otlashgan sifatlar o'zi

birikib kelgan soʻz bilan birga emas, balki mustaqil ravishda ot soʻz turkumini ifodalab uni nomlab keladi (Abdurahmonov G., 1950, 2), bu oʻzbek tilida ham, ingliz tilida ham uchraydigan jarayon hisoblanadi: *yaxshi-oshini yer, yomon-boshini. The rich are always happy and positive.* Bu kabi misollarni mashhur amerikalik yozuvchi Teodor Drayzerning “Baxtiqaro Kerri” (T.Drayzer. 2019) asaridan olib tahlil qilib chiqamiz: 1. *U oʻzining jurʼatidan qoʻrqib, ozodlikka chiqqanidan suyunib, joyida u yogʻidan bu yogʻiga agʻdarilib yotarkan, birorta ish topa olarmikinman, Drue nima qilarkin, deb oʻylardi.* Ushbu misolda ozodlikka soʻzi –lik qoʻshimchasi yordamida otlashib, gapda toʻldiruvchi vazifasida kelganligini koʻrishimiz mumkin. 2. *Mana endi qizi oʻn yettiga kirganida tabiatida maʼlum mahdudlik va mustaqillik alomatlari namoyon boʻla boshladi.* Ushbu misolda ham sifat otlashib kelganligini koʻrishimiz mumkin. Bunda ham mustaqillik soʻzi qoʻshimcha yordamida *mustaqil* sifati oʻzagidan ot soʻz turkumining grammatik shakliga ega boʻlganligi koʻrinib turibdi.

Yana bir misolni koʻrib chiqamiz: 3. *Endi esa sahiyligi tutib ketib, arziyas toʻrt yarim dollarini zumda oʻylab oʻtirmay koʻkka sovurar edi.* Ushbu gapdagi *koʻkka* soʻzi otlashgan sifat boʻlib, *koʻk* rangi maʼnosidan olingan, lekin ushbu gapda osmon maʼnosini bildiradi. Yuqorida keltirilgan sifatlarning aksariyati shaxsning belgi-xususiyati, holatini ifodalovchi sifatlar hisoblanadi: 5. *Yoshlik quvvatiga quvvat qoʻshilishiga putur yetgan va keksalikka mayl (bunda oʻrtacha yoshlardagi kishilar nazarda tutiladi) sezilgan paytlar ham boʻladi.* Ushbu gapdagi *yoshlik, keksalik* soʻzlari *yosh, keksa* sifatlaridan olingan boʻlib, insonning tabiiy holatini ifodalaydigan sifatlar hisoblanadi va –lik qoʻshimchasini olgan holda otlashib kelmoqda.

Diksonning taʼkidlashicha, ingliz tilida ham otlashish jarayoni boʻlib, sifat ot vazifasida keladi va unga xos grammatik xususiyatlarni ifodalab keladi (Dixon R.M.W., 1982). Ingliz tilidagi “Sister Carrie”

(T.Dreiser, 1900) kitobidan olingan misollarni ham ko‘rib chiqamiz: 5. *on the way to the small space portioned off by wood, where all the wraps and lunches were kept, she encountered the foreman, who stared at her hard*. Ushbu gapdagi *hard* so‘zi qattiq ma’nosini anglatuvchi sifat bo‘lib, bu yerda qiyinchilik ma’nosida ot o‘rnida qo‘llanilmoqda.

Ushbu misolda sifatning otlashish jarayoni *the* artikli yordamida aniqlanib turibdi va bu o‘zbek olimlarining ingliz tili grammatikasi va sintaksisi bo‘yicha olib borgan tadqiqotida o‘z aksini topgan (Buranov J., Hashimov U., Ismatullayev H., 1974, 47). Bundan tashqari ingliz tilida shunday sifatlar borki ularni hech qanday artikllarsiz ham otlashgan holda hamda ot bilan bir xil shaklda matnda kelishini uchratish mumkin: *I saw classics; This music is classics* (Randolph Q., 1983, 403). Yuqorida sifatning otlashgan shaklda kelishini ko‘rib chiqdik, endi esa sifatning gapda ravish bo‘lib kelishi borasida ham fikr yuritamiz. Sifat ravish so‘z turkumi bilan o‘xshash so‘z turkumlar hisoblanib, ularning ikkalasi ham belgini ifodalab keladi, biroq, sifat otning belgisini, ravish esa fe‘lning belgisini tasvirlab keladi. Ravish ish-harakatning belgisini, belgining belgisini, ish-harakatni bajarilish vaqti, joyi, miqdori, sababi, maqsadini tasvirlaydi (Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M., 2009). Quyida sifatning ravish vazifasida kelishini ko‘rib chiqamiz: 6. *“No,” returned Minnie softly, rattling the dishes to drown the conversation*. Ushbu gapda *softly* so‘zining o‘zagi *soft* sifatiga –ly qo‘shimchasini qo‘shgan holda ravish yasalgan. 7. *“Well now, it’s hardly possible that you would get anything to do in a wholesale house of this kind.”* Ushbu gapdagi *hardly* so‘zining ma’nosi zo‘rg‘a bo‘lib, *hard* so‘zining asl ma’nosidagi *qattiq* degan ma’noni ifodalamaydi, lekin baribir –ly qo‘shimchasini qo‘shgan holda ravish yasalgan. 8. *A youth with tan-colored hair that needed clipping very badly came shuffling along between the machines, bearing a basket of leather findings under his left arm, and*

pressed against his stomach. Ushbu misoldagi badly soʻzi bad sifatiga qoʻshimcha qoʻshish orqali ravish yasalgan va holatni ifodalab kelmoqda.

Shu bilan birgalikda, sifatning xarakter-xususiyatni ifodalovchi maʼno guruhi ham mavjud boʻlib, ushbu guruhga mansub sifatlar shaxs-buyumning ijobiy, salbiy va neytral xarakter-xususiyatini ifodalab keladi (Maʼrufov Z., 1957, 343.). Tahlil jarayonida aniqlangan xarakter-xususiyat sifatlarining funksional-semantik xususiyatlarini berib borishda davom etamiz: 9. Senga sadoqatli boʻlaman. *Sadoqatli* soʻzi kitobda birgina gapda berilgan boʻlib, sifatlovchi aniqlovchi vazifasida kelgan. 10. U Gerstvuddan aqlliyoq, Druega nisbatan bosiqroq va bilimdonroq koʻrinar, ayni paytda qalbi ham goʻdak qalbiday begʻubor edi. Ushbu misoldagi bosiq soʻzi matnda turli shakllarda kelgan: bosiqlikni, bosiqroq, bosiq, bosiqlik. 11. U biron narsa bilan vijdonimni tinchitsam deganidan oʻzining adolatli talablariga Druening beparvo va mensimay qarab kelayotgani bunga bahona boʻlgandi. 12. Biroq parkdan koʻngilsiz narsalarni tezda unutib yuboradigan odamlardek yuragi yengil tortib keldi. Bu esa juda ham koʻngilsiz edi. 13. Ana shu idoralarga aloqador odamlar faqat pul sanash-u yaxshi kiyinib, ekipajlarda yurishdan boshqa narsani bilishmaydiganga oʻxshardi. 14. Kordebaletdagilar sahnadagi bunday ishlar uchun jarima tushishi, goho aybdor ishdan boʻshatilishi mumkinligini ham bilishardi; Shu kuyga tushishiga uning yakka oʻzi aybdormikin? 15. Bizning tortinchoqqina Kerri ana shu yirik savdo rayoniga yoʻl olgandi; U tugʻma tortinchoq boʻlganidan oʻz manfaati uchun olishish zarur boʻlib qolganda, qolaversa bu kurash uchun kuchi va vositalari yetarli boʻlgan chogʻlarda ham tortinchoqligi oʻzini koʻrsatdi. 16. Uyga kelsa oqshom kechagidan ham battar zerikarli; -U yerda, Kolumbiya sitida nima ham qilasiz?-Drue Kerridan shunday deb soʻraganida uning soʻzlari Kerrining tasavvurida oʻzi qochib kelgan zerikarli hayot manzaralarini jonlantirdi. 17. Endi insonni olaylik: u changalzordagi inidan allaqachonlar uzoqlashgan, shaxsiy irodasi paydo

bo'lishi bilan instinktlari o'tmaslashgan, shunday bo'lsa ham uning irodasi hali instinktning o'rnini bosish va harakatlariga to'g'ri boshchilik qilish darajasida rivoj topmagan. 18. U telegraf orqali bundan sobiq xo'jayinlarini ogoh qilib, o'sha kuniyoq yetib kelgan ishonchli vakilga pulni topshirdi, undan tilxat olganidan keyin Kerriga safar tadorigini ko'rishni taklif qildi. 19. U esli-hushli, biroq tortinchoqroq qiz bo'lib, yoshlik va g'o'rlik yillarida kishini tinch qo'ymaydigan shirin orzular olamida charx urardi. 20. Gerstvod bo'lsa uning mo'min-qobilligidan azbaroyi mamnunligidan buning tagiga yetishga ham urinib ko'rmasdi. 21. Buning ustiga ular havo yaxshi-yomonligiga qaramay, har kuni ertalabdan boshlab parkka kelib, to tramvay boshqarmasidagilar chaqirib olguncha darvoza oldida turishlari kerak edi. 22. O'zi kunini o'zi ko'rganidan yaxshi-yaxshi narsalar taqinchoqlar olib, yeb-ichib, xonasini har jihatdan bezatardi. 23. U sezgir, har bir ayol kabi sinchkov edi; Ertalabki g'alvadan keyin ham ko'nglidan tarqamagan gumon va g'arazi yoniga endi ashaddiy sinchkovligi ham qo'shilgandi; Gerstvod uning sinchkov nigohini sezib, kimga ro'para bo'lganligini darhol fahmladi. Ushbu berilgan misollarda sinchkov so'zi kesim vazifasida, otlashgan sifat hamda sifatlovchi-aniqlovchi vazifasida kelganligi aniqlandi.

Quyida esa sifatning eng katta semantik guruhlardan bo'lgan xarakter-xususiyatni ifodalovchi semantik guruhda mansub otlashgan sifatlarni matndagi vazifalarini ko'rib chiqamiz: 24. O'zini ko'rkam tutishi, odobi va xushmuomalasi bilan mayxonada aha shunday joylar uchun g'oyatda zarur bo'lganm go'zal muhit yaratib qo'ygandi; Yigit, aftidan, tabiatan xushmuomala edi, o'zini katta olmasdi. Ushbu misollardagi xushmuomala so'zi otlashgan sifat bo'lib, kesim sifatida kelgan. 25. Olam muammolari, uni boshqarib turgan kuchlar haqida uncha-muncha bosh qotirish degan gaplar unga tamomila yot bo'lib, nimaiki qilsa ochko'zlikdan emas, xilma-xil ko'ngilochar ishlarga yuholigi tufayli qilar edi; Shunday bo'lsa ham, ana shu charog'on zal, undagi bashang

kiyingan, og‘ziga kelganni qaytarmay behuda va bemaza gaplar bilan vaqtini o‘tkazayotgan ochko‘z olomon, yasama hasham va satanglikka o‘chlik tashqarida-charaqlab turgan yulduzlar ostida turgan kishining ko‘ziga g‘aroyib va g‘alati ko‘rinardi. 26. Madenda albatta yaxshi, ko‘rkam va oqko‘ngil, biroq uning shunchaki omadi kelgan, deb qistirib ham ketdi. 27. Jamiyatdagi maishatparastlar tuni bilan aysh qiladigan (o‘zi ulardan ko‘pini tanirdi) ishratxonalar haqida har xil gaplar eshitib turganidan tobora toshbag‘ir bo‘lib borardi.

O‘zbek tilidagi sifat ma’noviy guruhlaridan yana biri holatni ifodalovchi sifatlar bo‘lib, holatni ifodalovchi sifatlar shaxs-predmetning holatini, ya’ni, uning ruhiy, jismoniy, eskilik, yangilik, toza, iflosligi, harorati va iqtisodiy holatini tasvirlaydi (Sodiqova M., 1974, 54). Ularning ham matndagi imkoniyatlarini tahlil qilib chiqamiz. 28. Kerri eskilarni ko‘rganda juda ham ezilib ketardi. 29. Paypog‘i ham, yap-yangi yubkasi ham bo‘ladi...

Tahlil jarayonida shunisi aniqlandiki, sifatning semantik guruhlaridan xarakter-xususiyat va holatni ifodalovchi sifatlar doim ham o‘z ma’nosida, ya’ni o‘z semantik guruhiga mansub ma’noda qo‘llanmasligi mumkin. bu borada mashhur italyan tilshunos olimi o‘zining fikrlarini ta’kidlab o‘tar ekan, ba’zi sifatlarning semantic guruhlari dudmal, chalkash ekanligini aytib o‘tadi (Gulyelmo Ch., 2014). *Uning yoshligidan o‘ziga ishonmasligi oqibati bo‘lgan tortinchoqligi ham o‘ziga juda yarashib turar, bu uni yanada ko‘rkam va go‘zal ko‘rsatardi*-ushbu misolda go‘zal sifati holatni ifodalab kelmoqda, chunki ushbu gapning mazmunidan go‘zal holatda ko‘rsatardi degan ma’no anglashilmoqda va bu holatni ifodalab kelmoqda. *Shuning uchun ham u chiroyli liboslar, barcha go‘zal narsalarga intilib azob chekardi*-ushbu misolda esa go‘zal so‘zi doimiy xususiyatni, ya’ni chiroylilik, ko‘rkamligini ifodalab kelmoqda. Shuning uchun ham u xususiyatni ifodalamoqda. *Tanish* sifati ham xususiyatni, ham holatni ifodalashi

mumkin: *tanish odam-xususiyatni, tanish bo'lib qoldi-holatni* ifodalab kelishi mumkin. *begona* sifati ham xuddi shunday ham xususiyat, ham holatni ifodalashi aniqlandi.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, sifatning gapdagi vazifalari o'zbek va ingliz tillarida deyarli bir xil hisoblanib, ular ko'pincha aniqlovchi vazifasida keladi. Shu bilan birgalikda sifatlar otlashgan holda ham uchraydi va boshqa so'z turkumlari ham sifatlashib kelishi mumkin ekanligi aniqlandi. Yana shunisi xulosalandiki, sifat semantik guruhlarning matnda turlicha semantik guruhlarni ifodalab kelishi ham kuzatildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдурахмонов Г. Субстантивированные прилагательные в современном узбекском языке: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Самарканд, 1950. – С.2-3.
2. Buranov J., Hashimov U., Ismatullayev H. English grammar (morphology, syntax). – T.: Ўқитувчи, 1974. – 47 b.
3. Dixon R.M.W., Alexandra Y. Aikhenvald. Adjective classes, a cross-linguistic typology. – Oxford: Oxford university press, 2004.
4. Dixon R.M.W. Where have all adjectives gone? And other essays in semantics and syntax. – Berlin: Mouton, 1982.
5. Dixon R.M.W. A semantic approach to English grammar. – Oxford: Oxford University Press, 1991.
6. Guglielmo Cinque. The Semantic classification of adjectives. A view from Syntax. Studies in Chinese Linguistics. Volume 35, Number 1. – Venice: University of Venice, 2014.
7. Маъруфов З. Сифат // Ҳозирги замон ўзбек тили (лексикология, фонетика, графика ва орфография, морфология). – Тошкент: ЎзФА нашриёти, 1957. – Б. 343-357.

8. Teodor Drayzer. Baxtiqaro Kerri. – Toshkent: Yangi nashr, 2019.
9. Theodore Dreiser. Sister Carrie. – United States: Doubleday, 1900.
10. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. – Т.: Фан, 1974.
11. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. O'quv qo'llanma. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2009. – 416 b.

REFERENCES

1. Abdurakhmanov, G. (1950). *Substantivirovannye prilagatelnye v sovremennom uzbekskom yazyke: Avtoreferat dissertatsii kandidata filologicheskikh nauk* [Substantivized adjectives in modern Uzbek: Abstract of candidate's dissertation]. Samarkand, Uzbekistan.
2. Buranov, J., Hashimov, U., & Ismatullayev, H. (1974). *English grammar (morphology, syntax)*. Tashkent: O'qituvchi.
3. Dixon, R. M. W., & Aikhenvald, A. Y. (2004). *Adjective classes: A cross-linguistic typology*. Oxford: Oxford University Press.
4. Dixon, R. M. W. (1982). *Where have all the adjectives gone? And other essays in semantics and syntax*. Berlin: Mouton.
5. Dixon, R. M. W. (1991). *A semantic approach to English grammar*. Oxford: Oxford University Press.
6. Cinque, G. (2014). The semantic classification of adjectives: A view from syntax. *Studies in Chinese Linguistics*, 35(1), 1–26. Venice: University of Venice.
7. Ma'rufov, Z. (1957). Sifat [Adjective]. In *Hozirgi zamon o'zbek tili: Leksikologiya, fonetika, grafika va orfografiya, morfologiya* [Modern Uzbek language: Lexicology, phonetics, graphics and orthography, morphology] (pp. 343–357). Tashkent: O'zFA Nashriyoti.
8. Dreiser, T. (2019). *Baxtiqaro Kerri* [Sister Carrie]. Tashkent: Yangi Nashr.

9. Dreiser, T. (1900). *Sister Carrie*. United States: Doubleday.
10. Sodiqova, M. (1974). *Hozirgi o'zbek tilida sifat* [Adjective in modern Uzbek]. Tashkent: Fan.
11. Sayfullayeva, R., Mengliyev, B., Boqiyeva, G., Qurbonova, M., Yunusova, Z., & Abuzalova, M. (2009). *Hozirgi o'zbek adabiy tili: O'quv qo'llanma* [Modern Uzbek literary language: A textbook]. Tashkent: Fan va texnologiya.